



QISHLOQ XO`JALIK MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISH LOGISTIKASIDA MARKETINGNI RIVOJLANTIRISH YO`LLARI

Sultonova Dilnozaxon Dilshodovna.

Andijon qishloq xo`jaligi va agrotexnologiyalar instituti.

Agrobiznes va marketing kafedrasida assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8010004>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2023 yil

Ma`qullandi: 28-May 2023 yil

Nashr qilindi: 06-June 2023 yil

KEY WORDS

Agrosanoat majmui, mahsulot sifati, erkin bozor, marketing, logistika, ishlab chiqarish logistikasi, asosiy va aylanma fondlari, mehnat resurslari bozori, mehnat unumdorligi, investitsiyalar, import va eksport salohiyati.

ABSTRACT

Respublikamizda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda qishloq xo`jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish logistikasida marketingni rivojlantirishga alohida e`tibor berilmoqda. Maqsad agrar soha logistika va marketing sohasini mavqeini ko`tarish, amaliyotga keng joriy etishdan iboratdir. Ushbu maqolada qishloq xo`jaligi ishlab chiqarish logistikasida marketingni rivojlantirish yo`nalishlariga bag`ishlangan takliflar ishlab chiqilgan.

Qishloq xo`jalik ishlab chiqarish logistikasida marketingning maqsadi – talabni shakllantirish va rag`batlantirish, qishloq xo`jaligi ishlab chiqaruvchisi ishining rejalari va qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining asosligini ta`minlash hamda qishloq xo`jaligi mahsulotlarining savdo ko`lami, bozor hissasi va foydasini ko`paytirishdan iborat. Sotiladigan, ya`ni bozori chaqqon qishloq xo`jaligi mahsulotlarini yetishtirish – fermer faoliyatiga marketing nuqtai nazaridan yondashishining asosiy nishonidir.

Qishloq xo`jaligi korxonasida ishlab chiqarishni boshqarishga strategik yondoshuv logistikaning maxsus xizmatini ajratishni ko`zda tutadi, bu xizmat yetkazib beruvchi bilan shartnomali munosabatlarni shakllantirishdan boshlab to tayyor mahsulotni iste`molchiga yetkazib berishgacha bo`lgan moddiy oqimni boshqarishi zarur.

Logistika bilan marketingning o`zaro bog`liqligi muhim ahamiyatga ega. Masalan, marketing xizmati tomonidan hal qilinadigan korxonada ishlab chiqarayotgan mahsulot assortimentini boshqarish va xizmat ko`rsatishni rejalashtirish logistik bo`linmalar bilan birgalikda amalga oshiriladi. Bunda logistika xizmatining maqsadi bo`lib, marketologlar tomonidan asoslab berilgan mahsulot turlarini ishlab chiqarishga ketadigan xomashyoni yetkazib berish va zaxiralarni boshqarish hisoblanadi.

Qishloq xo`jaligini erkin bozor iqtisodiyoti qonunlari talabi darajasida barqaror rivojlantirish uchun qishloq xo`jaligini yuritishning turli mulk va mulkchilik shakllarini va tadbirkorlik shakllarini barpo etishning zarurligi, yer-suv resurslaridan samarali foydalanish,

sugʻoriladigan yerlar maydoni, sifati, moddiy-texnika resurslari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion texnologiyalar va ulardan samarali foydalanish, qishloq xoʻjaligining asosiy va aylanma fondlari mehnat resurslari bozori, mehnat unumdorligini oshirish, investitsiyalar (kapital qoʻyilmalar) boʻyicha davlatning siyosati, qishloqda servisni rivojlantirish, xarajatlarni tejash, mahsulot va xizmatlarning baholarini belgilash, raqobatbardoshligini oshirish hamda qishloq xoʻjaligi korxonalarining daromadlarini koʻpaytirish yoʻllarini asoslab berish maqsadga muvofiqdir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev taʼkidlaganidek, -Qishloq xoʻjaligini diversifikatsiya qilish, yer-suv resurslaridan yanada oqilona foydalanish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish orqali dehqonlarning daromadini oshirish borasida olib borayotgan tizimli ishlarimiz ham asta-sekin oʻz samarasini bermogʻda.¹

Mamlakatimiz qishloq xoʻjaligida bozor iqtisodiyoti talablariga mos iqtisodiy munosabatlarni shakllantiradigan, huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilishini taʼminlash imkoniyatini beradigan tadbirlar ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilmoqda. Bunda sohaga oid turli dasturlarning qabul qilinib, hayotga tatbiq etilishi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Natijada qishloq xoʻjaligining yuqori surʼatlarda rivojlanishini taʼminlash va shu orqali respublika iqtisodiyotini yuksaltirishga erishilmoqda.

Agrar-iqtisodiy islohotlar va tarkibiy oʻzgarishlar hamda diversifikatsiyalash natijasida qishloq xoʻjaligida xoʻjalik yuritishning bozor shakllariga oʻtildi va mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilarning salmogʻi oshdi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xoʻjaligi tarmogʻi muhim ahamiyatga ega. Chunki respublikamiz aholisining 49,4 foizi (17,4 mln kishi 2022yil 1 yanvar holatiga) qishloq joylarda istiqomat qiladi va ularning turmush farovonligi mazkur tarmoq rivoji bilan uzviy bogʻliqdir. Bundan tashqari mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida ham qishloq xoʻjaligi tarmogʻi sezilarli salmoqqa ega.

Bugungi kuchli raqobat sharoitida qishloq xoʻjaligi tizimida ham yangicha yondashuv, innovatsiyalar va ilgʻor ishlanmalarni, intensiv va resurs tejaydigan texnologiyalarni izchil tatbiq etishni zamonning oʻzi taqozo qilmoqda.

Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish logistikasida marketingni tashkil etish taqsimlash va tarqatish logistika zanjirlarida xarajatlarni minimallashtirish sharti bilan samarali talabni toʻliq, oʻz vaqtida va sifatli qondirish maqsadida qishloq xoʻjaligi korxonalarining iqtisodiy oqimlarini boshqarish usullari toʻplami sifatida aniqlash mumkin.

Marketing fani rivojiga katta hissa qoʻshgan iqtisodchi olim F.Kotler marketingni – isteʼmolchilar ehtiyoj va talablarni ayriboshlash orqali talab va ehtiyojlarni oʻrgangan holda ularni optimal variantda qondirishdir, deb izohlagan.

Agromarketing sanoat, tijorat, bank va boshqa marketing turlaridan farq qiladi. Bu qishloq xoʻjaligining oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Natijalarning tabiiy sharoitlarga bogʻliqligi, tovarning roli va ahamiyati, mulkchilik shakllarining turlichaligi, ish davri va ishlab chiqarish davrining bir-biriga mos kelmasligi, ishlab chiqarish va mahsulot olishning mavsumiyliigi, xoʻjalik yuritishning tashkiliy shakllari turlichaligi va ularning

¹ SH.M. Mirziyoyev Rizq-roʻzimiz bunyodkori boʻlgan qishloq xoʻjaligi xodimlari mehnatini ulugʻlash, soha rivojini yangi bosqichga koʻtarish – asosiy vazifamizdir//Xalq soʻzi. 10.12.2017.

dialektikasi, tashqi iqtisodiy aloqalar, agrosanoat kompleksini va uning tarmoqlarini rivojlantirishda davlat organlarining ishtiroki kabilar shular jumlasidandir. Agrobiznes faoliyatida tabiiy va iqtisodiy jarayonlar birlashib ketadi va ishlab chiqarish hamda marketingni tashkil qilish uchun alohida sharoitlar yaratadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarining eng muhim yo'nalishi hisoblangan bo'lgan oziq-ovqat sanoati O'zbekiston milliy iqtisodiyotining eng yirik va an'anaviy tarmoqlaridan biri hisoblanib, bu tarmoq milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga, agrosanoat majmuida tarmoqlararo nisbatlarni takomillashtirishga, respublika qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan xom ashyoni isrof qilmay, ya'ni qayta ishlagan holda, iste'molchilarga to'liq yetkazib berish, shuningdek aholining ish bilan bandligi muammolarini hal qilishga ta'sir etadi. SHu bilan birga, mamlakatimizda yetishtirilayotgan meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berishning zamonaviy tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratishilishi kerak. Yurtimizda yetishtirilayotgan meva-sabzavot mahsulotlarining aksariyat qismi yangi uzilgan holda emas, balki konservatsiya qilingan, qayta ishlangan yoki quritilgan holda iste'mol qilinmoqda. Bunday holatda mahsulotlar o'zining sifati, ta'mi va tibbiyot nuqtai nazaridan iste'mol xususiyatlarini ma'lum darajada yo'qotadi. O'zbekiston kompaniyalari Boltiq dengizi bo'yidagi Liepay portida bir kecha-kunduzda 1,5 ming tonna mahsulotni saqlash quvvatiga ega bo'lgan transport-logistika markazini tashkil etishgan va ushbu markaz orqali meva- sabzavot mahsulotlarini SHimoliy va G'arbiy Yevropa mamlakatlariga to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berishmoqda². Xalqaro qishloq xo'jaligini rivojlantirish fondi, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, Global ekologik fond, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti kabi boshqa ko'plab institutlar, shuningdek, xorijiy mamlakatlar hukumatlari agentliklarining bu borada ko'rsatayotgan yordami katta bo'lib, ularning ishtirokida yuzdan ortiq investitsiya va grant loyihalarini amalga oshirish uchun mamlakatimizga 1,1 milliard dollardan ortiq mablag' jalb etildi³. Ajratilgan moliyaviy mablag'lar bilan birga ushbu xalqaro tashkilotlar tomonidan ilg'or agrosanoat texnologiyalarini jalb etish, qishloq xo'jaligi infratuzilmasi, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini rivojlantirish hamda rekonstruktsiya qilish, marketing va jahon bozorlariga chiqish bo'yicha yangi texnologiyalarni joriy qilish borasida amaliy yordam va hamkorlik ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasi va BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti o'rtasida hamkorlik to'g'risida bitim imzolangan va Toshkent shahrida ushbu tashkilot vakolatxonasi ochilgan. O'zbekiston bilan BMTning qishloq xo'jaligi sohasidagi asosiy moliyaviy instituti bo'lmish Xalqaro qishloq xo'jaligini rivojlantirish fondi o'rtasida konstruktiv hamkorlik o'rnatilgan bo'lib, bu fondning asosiy vazifalaridan biri yuqori samaradorlikka ega bo'lgan qishloq xo'jaligi tizimini shakllantirish bo'yicha yondashuvlarni amalga oshirishdan iboratdir. Bu esa bugungi kunda ajratilayotgan mablag'larni maqsadli ishlatish, xarajatlar hisobini to'g'ri va o'z vaqtida yuritish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Hozirgi kunda tashkil etilayotgan klasterlar bo'yicha xarajatlarni hisobga olish hamda hisobini yuritishda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish, yuqori natijalarga erishish uchun xizmat qiladi.

² Абдурахмон Р., Абдунаби В. “Мутахассисликка кириш”, Олий ўқув юртлари учун дарслик. Т-2016й, 48-б.

³ Кластер рақобатни кучайтирувчи омил <http://www.biznes-daily.uz/ru/gazeta-birja>.

Ma'lumki, har qanday mamlakatning jahon bozoriga mahsulotlarni olib chiqish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish, ularning raqobatbardoshligini oshirishda sifatli mahsulot muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda Respublikamiz hududidan eksport qilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlar bir qator ko'rsatkichlari bilan xorijda yetishtirilayotgan mahsulotlardan ustunligi bois jahon bozori rastalarida o'z o'rnini va haridorligirligi kundek ravshan, albatta.

Tabiiyki, har bir iste'molchining asosiy talabi ham gigienik jihatdan talabga javob beradigan, ham sifatli mahsulotni xarid qilish va iste'mol qilishdir. Mahsulotning sifatini, uning raqobatbardoshligi, dunyo standartlari talablari darajasida ishlab chiqarilishi esa bozorning eng birlamchi talablaridan biri hisoblanadi. Albatta, har bir davlat, avvalo, o'z bozorini sifatsiz, iste'mol uchun yaroqsiz mahsulotlardan himoyalashga harakat qiladi. Jumladan bizning mamlakatimizda ham bugungi kunda bu borada salmoqli ishlar olib borilmoqda. Buni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi "O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlanishiga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5388-sonli farmoni misolida ko'rishimiz mumkin.⁴

Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talabning ortishi va yetishmovchiliklar ko'payib borayotgan bir davrda, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmi yildan-yilga ortib bormoqda.

Bu esa o'z navbatida talabni qondirishni va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga yetishmovchiligini bartaraf etishning bir yo'li sifatida ko'rishimiz mumkin. Birgina shu yilning yanvar-aprel oylari oralig'ida O'zbekiston Respublikasi chet davlatlarga qiymati **115,9 million dollar** bo'lgan **120 ming tonna** qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport qilindi. Ushbu ishlar barobarida joylarda logistika markazlari tashkil etilgani ham eksport salmog'ini ortishiga imkoniyat yaratib berganligini aytib o'tish lozim.

"Birlashgan Millatlar Tashkilotining oziq-ovqat masalalari bo'yicha bergan hisobotiga ko'ra, hozirda yer aholisining qariyb 1 milliardga yaqin qismi oziq-ovqat taqchilligini sezmoqda. Bizning mamlakatimizda esa ushbu holatdan to'g'ri xulosa chiqarib olib borilayotgan siyosatdan uzoqni ko'zlanganligini bilib, ko'rib turibmiz. Hozirda xalqimiz ehtiyojidan ortiqcha **180 turdan** ziyod meva-sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlar dunyoning bir qator davlatlari jumladan AQSH, Braziliya, Vetnam, Indoneziya, Kipr, Makedoniya, Malayziya, Mo'g'uliston, Rossiya Federatsiyasi, Tailand, Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya kabi 80 dan ortiq davlatlarga eksport qilinayotgani fikrimiz isboti hisoblanadi."⁵

Mamlakatimizda eksport salohiyatning kundan-kunga ortishi o'z navbatida mahsulotni yetkazib berishdagi logistika tizimining rivojlanishiga ham sabab bo'lmoqda. Bizga ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari logistika sohasining asosiy savdo obektlari hisoblanadi. Mahsulotlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni yetkazishdagi muaommalar va zarar yetkazilishi va korroziyaga olib kelishi mumkinligi turgan xol, albatta. SHu sababli, qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun logistika tizimini to'g'ri amalga oshirish zarur.

-Agrologistika sohasini rivojlantirish maqsadida, **Osiyo taraqqiyot banki** mamlakatimiz agrologistika markazlarini barpo etish uchun **197 million** dollar miqdorida kredit taqdim etishni rejalashtirmoqda. Agrologistika markazlari yangi va qayta ishlangan meva va

¹⁵<http://finansist.uz/>

⁵ Uzstandart agentligining Standart ilmiy-texnik jurnali 2017 yil 3-son, 11-bet

sabzavotlar saralash, hamda yetkazib berish bilan shug'ullanadi. Agrologistika markazlari Andijon, Samarqand va Toshkent viloyatlarida qurilishi rejalashtirilmoqda. Qurilish loyihasi tayyor bo'lib, xozirda tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. Qurilish ishlarini 2023-yilda yakunlash maqsadi belqilangan"⁶.

Sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlari doim o'z haridorlarini topib kelgan. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat uchun eksportdan keladigan qo'shimcha mablag', valyuta tushumini ko'paytirishga omil bo'lib xizmat qiladi. Buning natijasi o'laroq ishlab chiqarish va yetishtirish uchun yangi texnik imkoniyatlar va texnologiyalarni olib kelish imkonini yaratib beradi.

Biroq, eksport salohiyati ortganiga qaramasdan, ba'zi hollarda eksportga yuborilgan qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining YEropa bozorlariga kirishida bir qancha muammolarga duch kelmoqda. Buning sababi esa eksportga taqdim etilgan mahsulotlarni yetishtirishdagi, saqlashdagi va jo'natishdagi muammolarning to'laligicha bartaraf etilmaganidir. O'zbekiston Respublikasidagi dexqon-fermer xo'jaliklari bugungi kunda YEropa standarti talablariga mos sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelganini tan olish zarur. Avvalo, bunga sabab mahsulotni tashish va yetishtirish davomida yo'l qo'yilgan xatolik oqibatida mahsulot sifatining buzilishiga olib keladi. Bundan tashqari, eksport qiluvchi va import qiluvchi davlatlarning mahsulotga bo'lgan standartlaridagi tafovutlari mavjudligi sababli mahsulot eskporti muvaffaqiyatli amalga oshmayapti. Buning yechimi sifatida, avvalo, eksport qiluvchi davlat mahsulotni sotib oluvchi davlatning standartlarini o'rganib chiqishi va o'zining milliy standartlari bilan solishtirishi va uni o'sha standartlar bilan uyg'unlashtirishi orqali kamchiliklarini bartaraf etgan holda amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida tizimli boshqaruv, ishlab chiqarishni tashkil etish, iste'molchi bilan to'g'ridan-to'g'ri doimiy o'zaro manfaatli munosabatlar olib borilishini guvoni bo'lmoqdamiz, O'zbekiston Respublikasi o'tgan davr mobaynida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va YEropa bozorlariga eksport qilish bo'yicha bir qancha qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu esa o'z navbatida eksport salohiyatini oshirishimizga to'sqinlik qilmoqda. Biz xalqaro standartlarni mavjud sohalarga joriy etgan holda, sifatni yaxshilanishini doimiy tahlil etib borsak, natijaviylik ham o'z o'mida bo'laveradi. Pirovardida, jahon bozori rastalarida — **Made in Uzbekistan**" yozuvining ko'payishiga va yetishtirayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarimizni salmog'i yanada ortishiga zamin yaratiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib quyidagi takliflarni bildiramiz.

1.Qishloq xo'jaligida kumyoviy preparatlar va antibiotiklardan foydalanishni bosqichma-bosqich jadal cheklash (Bu borada Niderlandiya davlati 20 yillik tajribaga ega);

2.Ekin yerlarining optimal tekisligini oshirish orqali suv, yoqilgi, mineral o'gitlar hamda ishchi kuch sarfini tejash tajribalarini kuchaytirish;

3.Hukumatimiz tomonidan soha faoliyatiga taalluqli me'yoriy-huquqiy hujjatlarni barcha subyektlar tomonidan muntazam o'rganib, so'zsiz amal qilib borish;

4.Ilg'or davlatlar tajribalarini tezkor o'rganib, hududiy imkoniyatlarimizga moslash va tatbiq etish ishlari sifati va ko'lamini kengaytirish;

5.Ilmiy-tadqiqot ishlari va innovatsion faoliyat natijalarini rag'batlantirishni

⁶ <https://daryo.uz/>

kuchaytirish;

6. Seleksiya va urug'chilik-naslchilik bankini yanada bo'yitish, ayni damda yangi dehqonchilik va chorva ne'matlarini iqlimlashtirish va yaratish;

7. Yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish ko'lamini oshirish;

8. Sohada raqobat muhitini kengaytirish orqali keng assortiment, qulay narxlarda, yuqori sifatli ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini barqaror oshirib borish;

9. Iste'mol sifati va aylanishini osirish uchun transport-logistika ishlarini zamonaviy xalqaro tajribalar asosida muntazam takomillashtirib boorish;

10. Marketing tadqiqotlarini cuqurlashtirib, mahalliy, yaqin qo'shni davlatlar hamda umumjahon miqyosida uygu'n moslashuv chora-tadbirlarini ishlab chiqish, pirovardida import o'nini bosuvch va eksportbop ishlab chiqarish salohiyatini barqaror o'stirish choralari ko'rish.

Ushbu takliflarni amaliyotga tatbiq etish natijasida xavfsiz va ekologik toza qishliq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishga, ichki va xalqaro ehtiyojlarni qondirish orqali milliy xo'jaligimizga katta naf keltirilishiga erishish mumkin deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli Farmoni;
2. Нилуфар, К., Jalilov, A., & Xalmatov, M. (2023). «EFFECT OF HARMFUL SUBSTANCES IN THE ATMOSPHERE ON TREE COVER». © ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА».
3. Qobulova, N. J., Abdurahmonov, A., & MusaeV, M. Mahkmudov Sh.(2022). DEVELOPMENT OF SAFE TECHNOLOGY OF FUEL BRIQUETTES BASED ON FOOD AND AGRICULTURAL ORGANIC WASTE. Экономика и социум,(2-2 (93)), 312-315.
4. Алимова, Х. А., Арипджанова, Д. У., Хайдаров, К. Б., & Кабулова, Н. Ж. (2013). Фрикционные свойства натурального шелка. Ж. Композиционные материалы.–2013, 2, 25-27.
5. Yusupov, I. I., Qobulova, N. J., Xojiev, A. A., & Vaxobov, A. (2020). TO REDUCE GLOBAL CLIMATE ISLAND FOCUSED LOCAL COOPERATION. Theoretical & Applied Science, (11), 501-507.
6. Халматов, М. М., Исмаилходжаев, Б. Ш., Кабулова, Н. Ж., & Хусанов, Д. Д. (2021). ГЕОФИЗИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ АТМОСФЕРНЫХ ЗАГРЯЗНИТЕЛЕЙ В АНДИЖАНЕ НА ОСНОВЕ УРАВНЕНИЙ АЭРОДИНАМИКИ. Universum: химия и биология, (6-1 (84)), 30-34.
7. Goto, N., Shibata, Y., Rahmatillayev, J., Qobulova-tfd, N., Atajonova, S., Turg'unova, N., & Toxirov, A. Xorijiy hamkorlar ishtirokida o'tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumani to'plaminig TAHRIR XAY'HATI.
8. NJ QOBULOVA, A ABDURAHMONOV, M MUSAEV, SH MAHKMUDOV (2022) DEVELOPMENT OF SAFE TECHNOLOGY OF FUEL BRIQUETTES BASED ON FOOD AND AGRICULTURAL ORGANIC WASTE. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ, 2-2 (93) , 312-315.
9. Ходжакулов, М. Н. (2022). ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ НАСЕЛЕНИЯ К ДЕЙСТВИЯМ В ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЯХ И ДРУГИХ ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ. Universum: технические науки, (6-1 (99)), 18-20.
10. Ходжакулов, М. Н. (2021). ПРОБЛЕМЫ РАДИАЦИОННОЙ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ

- БЕЗОПАСНОСТИ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ. *Universum: технические науки*, (5-1 (86)), 27-31.
11. Khodjakulov Mukhtorjon, & Rakhimov Dilmurad (2022). PROPOSALS FOR AMENDMENTS TO REGULATORY DOCUMENTS FOR HIGH-RISE BUILDINGS. *Universum: технические науки*, (6-6 (99)), 51-54.
12. Yulchiyev, D. R. O. G. L., Khodjakulov, M. N., & Muxabbatxon, G. (2022). THE IMPORTANCE OF USING SOFTWARE (SEARCH AND INFORMATION MAP SERVICE, GEOLOCATION) IN FIRE VEHICLES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Scientific progress*, 3(2), 82-89.
13. Ходжакулов, М. Н. (2020). Модель обучения «5+ 1» и его применение при подготовке специалистов в высших учебных заведениях. *Universum: психология и образование*, (9 (75)), 7-12.
14. Habibullaevna, K. S., & Xodjakulov, M. N. (2022). Emergency Situations that May Occur as a Result of Public Disorder, Damage Reduction and Fire Safety Measures. *International Journal of Formal Education*, 1(12), 74-77.
15. Туланов Мамасидик. (2023). ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОКУЛЬТУРНОГО И ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ У МОЛОДЕЖИ – ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ. *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*, 2(4), 405–409.
16. Назаров, М., Туланов, М. К., & Акрамов, М. К. (2015). КУЛЬТУРА КАК ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ И ДУХОВНЫХ ПОТРЕБНОСТЕЙ ЛИЧНОСТИ. *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов*, (6), 67-69.
17. Туланов, М., & Юлчиев, Э. (2016). НЕОБХОДИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНОГО ПАРТНЕРСТВА В АГРАРНОМ СЕКТОРЕ ЭКОНОМИКИ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1413-1415).
18. Расулова, Н., & Хакимова, Ш. ЁШЛАРДА РЕПРОДУКТИВ ОНГ ВА ОИЛАГА ҚАДРИЯТЛИ МУНОСАБАТНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ПСИХОЛОГИК-ПЕДАГОГИК ЖИҲАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ.
19. Yakubova Barno Baxtiyorovna. (2023). FORMATION OF INDEPENDENT THINKING AMONG YOUNG PEOPLE – TODAY IS THE MOST RELEVANT DAY IN PEDAGOGY AS A FUNCTION. *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*, 2(3), 143–148.
20. Якубова, Б. Б. (2019). Теоретические основы организации самостоятельной работы студентов. In *Психология в меняющемся мире: проблемы, гипотезы, исследования* (pp. 291-295).
21. Bakhtiyarova, Y. B. (2022). CREATIVENESS AND CREATIVENESS IN A PERSON THE NEED FOR THE DEVELOPMENT OF ADJECTIVES. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 3, 56-58.
22. SATVALDIYEV, A. (2021). РАҲБАРНИНГ КАСБИЙ МАҲОРАТИ. *Scienceweb academic papers collection*.
23. SATVALDIYEV, A. (2022). РИВОЖЛАНГАН БОЗОР ИҚТИСОДИЁТИДА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ ЎРНИ.
24. SATVALDIYEV, A. (2019). БОШҚАРУВ ТИЗИМИДА ФАОЛИЯТ КЎРСАТАЁТГАН РАҲБАР ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ШАХСИЙ ВА ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК СИФАТЛАРИ. *Scienceweb academic papers collection*.
25. SATVALDIYEV, A. (2022). PERSONAL AND SOCIAL PSYCHOLOGICAL FACTORS OF

FEMALE MANAGERS. SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL MACHINE BUILDING.

26. SATVALDIYEV, A. (2021). ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИҚДА РАҲБАР АЁЛ ФАОЛИЯТИ МУАММОСИНИНГ ЎРНИНИ ЎРГАНИШ.

27. SATVALDIYEV, A. (2021). ЖЕНСКОЕ ЛИДЕРСТВА В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ СЕГОДНЯ.

28. SATVALDIYEV, A. (2020). УСЛОВИЯ И РЕШЕНИЯ ДЛЯ ЖЕНЩИН ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ СЕГОДНЯ.

29. SATVALDIYEV, A. (2022). The Role of Women Leaders in Small Business and Private Entrepreneurship. International Journal of Formal Education.

30. SATVALDIYEV, A. (2020). ТАДБИРКОР ВА РАҲБАР АЁЛЛАРНИНГ ИМИДЖИНИ ШАКЛЛАНТИРУВЧИ ГЕНДЕР СИФАТЛАР ТАҲЛИЛИ. Scienceweb academic papers collection.

31. Xamidovna P. O. Methods of teaching young people to communication in pedagogical activity //eurasian journal of academic research. – 2021.

32. Bakhtiyarovna, Y. B. (2022). Independent Thinking in Graphic Education Application of Reinforced Interactive Methods. Eurasian Journal of Research, Development and Innovation, 15, 1-3.

33. Bakhtiyarovna, Y. B. (2022). INDEPENDENT WORK OF STUDENTS THROUGH THE INTERNET PEDAGOGICAL CONDITIONS OF ORGANIZATION. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 3, 59-61.

34. Bakhtiyarovna, Y. B. (2021). A modern method of independent teaching the role of the distance education system information. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.5 Pedagogical sciences).

35. Bakhtiyorovna, Y. B. (2021). Independent work of students through the internet pedagogical conditions of organization.

36. Mamasidiq T. The Role of National, Religious, Traditions and Moral Heritage of the Uzbek People in the Education of Young People //Telematique. – 2023. – С. 7652-7657.

37. Mamasidiq T. Socio-Psychological Aspects of the Formation of Civil Positivity in Young People //Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 319-321.

38. Туланов, М. (2016). ИСТОРИЯ КАК ОСНОВА ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ. In Современные тенденции развития аграрного комплекса (pp. 1698-1700).

39. Туланов, М. (2016). ДУХОВНАЯ ЦЕННОСТЬ, КАК ГЕНЕЗИС РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕОЛОГИИ В МНОГОНАЦИОНАЛЬНОМ ГОСУДАРСТВЕ. In Современные тенденции развития аграрного комплекса (pp. 1683-1687).

40. Туланов Мамасидик. (2023). ПОСТРОЕНИЕ ДУХОВНОГО ПРОСТРАНСТВА, ПРОСВЕЩЕННОГО ОБЩЕСТВА, ГДЕ ЧЕЛОВЕК ЖИВЕТ СВОБОДНО И КОМФОРТНО В ОБНОВЛЕННОМ УЗБЕКИСТАНЕ, ЯВЛЯЕТСЯ АКТУАЛЬНЫМ ВОПРОСОМ. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies, 2(4), 396-399.

41. Rakhmonova, D. S. (2020). Teacher's creative potential is factor of education quality assurance. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(3), 453-457.

42. Saidovna, R. D. (2021). Pedagogical creativity as a factor of student development. Web

of Scientist: International Scientific Research Journal, 2(05), 729-736.

43. Saidovna, R. D. (2023, March). A SYSTEMATIC APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 2, No. 3, pp. 133-142).

44. Khamidovna, P. O., Saidovna, R. D., & Barnohon, Y. (2019). The Role of Interactive Methods For Improving Students Communicational Culture of Higher Educational Institutions. International Journal of Scientific Research And Education, 7(4).

45. Saidovna, R. D. (2022). PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE EDUCATOR—THE MAIN FACTOR ENSURING THE QUALITY OF EDUCATION. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 3, 226-231.

